

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI**

ZIYADULLAYEV MAXMUDJON DJURAKULOVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PENSIYA TIZIMINING HUQUQIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta’minot huquqi

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)
Content of the abstract of the doctoral (DSc) dissertation

Ziyadullayev Maxmudjon Djurakulovich O‘zbekiston Respublikasida pensiya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish.....	3
Зиядуллаев Махмуджон Джуракулович Совершенствование правовых основ пенсионной системы Республики Узбекистан.....	26
Ziyadullayev Maxmudjon Djurakulovich Improving the legal basis of pension system of the Republic of Uzbekistan.....	50
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works.....	55

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI**

ZIYADULLAYEV MAXMUDJON DJURAKULOVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PENSIYA TIZIMINING HUQUQIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta’minot huquqi

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.DSc/Yu157 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining veb-sahifasida (www.mgixu.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Usmanova Muborak Akmaljanovna
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Samarxodjayev Botir Bilolovich,
yuridik fanlar doktori, professor

Ismailov Shuxratjon Abdusaminovich,
yuridik fanlar doktori

Gaziyev Shoxruh Murodaliyevich,
yuridik fanlar doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini
oshirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil “___” – sentabr soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100211, Toshkent vil., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: (99871) 230-32-71; faks: (99871) 230-32-50; e-mail: mgixu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100211, Toshkent vil., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: (99871) 230-32-71; faks: (99871) 230-32-50.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “___” _____kuni tarqatildi.
(2023-yil “___” _____dagi ___raqamli reestr bayonnomasi).

M.X.Rustambaev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

M.I.Maxsadov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.B.Usmanov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda demografik o'zgarishlar natijasida aholi umr kechirish davomiyligining ortib borishi shunga mutanosib ravishda boshqa ijtimoiy masalalarni, shu jumladan aholi pensiya ta'minotini yanada takomillashtirish vazifalarini kun tartibiga qo'yimoqda. Yer yuzi aholisi yil sayin keksayib bormoqda, BMTning ma'lumotlariga ko'ra: "...bugungi kunda keksa yoshdagi aholi (60 yoshdan yuqori) 1 mlrd.dan ko'p bo'lib, jami aholiga nisbatan 13% ni tashkil etmoqda"¹. Xalqaro Mehnat Tashkilotining tahliliga ko'ra: "...mazkur toifa aholining faqat 68%gina pensiya bilan ta'minlangan, xolos"². Bu esa, dunyo mamlakatlarida pensiya ta'minotining turlicha modullari, tizimlari va konsepsiyalari, tartiblari amal qilayotganligidan darak beradi. Xususan, ayrim iqtisodi rivojlangan mamlakatlarda (masalan, AQSh, Germaniya, Fransiya, Skandinaviya davlatlari, XXR, Rossiya Federatsiyasi, Singapur) davlat va nodavlat pensiya tizimlarining ilg'or shakllari amal qilib, ularda pensiya miqdorlari o'rtacha ko'rsatkichdan yuqoriligi, aholining barcha toifalari ijtimoiy sug'urta bilan to'liq qamrab olinganligi va sohaga to'liq axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilinganligi bo'yicha ilg'or tajribalarni va mexanizmlarni hozirgi kunda milliy qonunchiligimizga va soha amaliyotiga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda ijtimoiy muhofazaning bir qismi hisoblangan pensiya tizimida bugungi kundagi muammolarni bartaraf etish va pensiya ta'minotining huquqiy negizini takomillashtirish, bu sohadagi xalqaro standartlarni davlatlarning milliy qonunchiliklariga asosli implementatsiya qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Fuqarolarni munosib pensiyalar bilan ta'minlash va ularga qulay bo'lgan pensiya ta'minoti tizimini yaratish, ijtimoiy ta'minot bilan ta'minlash kafolatlarini takomillashtirish, pensiya qonunchiligini xalqaro andozalarga muvofiq qayta ko'rib chiqish, pensiya ta'minotiga oid yangi huquqiy mexanizm va modullarni yaratish, pensiya ta'minotida ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplarini ustuvor qo'llashga erishish, bir so'z bilan aytganda pensiya ta'minoti huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tahlillar qilish bugungi kunning ustuvor vazifasi hisoblanmoqda.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda pensiya ta'minot tizimini isloh qilish borasida dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiya"³ sida aholini ijtimoiy himoya qilish faolligini oshirishni yanada rivojlantirish va takomillashtirish" bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan bo'lib, ular qatorida milliy pensiya tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish zarurligi qayd etilgan. Bu esa, hozirgi kunda norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi subyektlarning ijtimoiy sug'urtasini joriy qilish orqali ularni pensiya ta'minoti bilan ta'minlash, tashqi mehnat migratsiyasida faoliyat yuritayotgan fuqarolarning

¹ Dunyo aholisi keksaymoqdami?// <https://kun.uz>

² <https://www.kommersant.ru>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.

kelajakda pensiya bilan ta'minlanishi uchun zarur mexanizmlar ishlab chiqish, O'zbekistonda davlat pensiya ta'minotiga muqobil bo'lgan pensiya ta'minoti tizimini yaratish, pensiya ta'minoti bo'yicha raqobatdosh moliyaviy institutlar va nodavlat pensiya tuzilmalarini tashkil etish, amaldagi pensiya jamg'armasining barqarorlik indeksini oshirish, pensiya to'lovlarini qoplash uchun davlat budjetidan transfer (bugungi kunda 15 trln.so'm) olishni kamaytirish va moliyaviy mustaqillikka erishish, bir so'z bilan ifodalaganda amaldagi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish va sohaga oid qonunchilik asoslarini ilmiy tadqiq qilish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 9-fevraldagi "Fuqarolarning va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari kafolatlari yanada kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-752-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrda PF-5597-son "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-son "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori va boshqa pensiya ta'minotiga oid normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁴. Pensiya ta'minotining huquqiy asoslarini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, shu jumladan, Yale University, University of California, Davis, University of Connecticut, Hunter College, University of Maryland, University of Oxford, Cambridge University (Buyuk Britaniya), Boston College, Harvard University, The University of Chicago,

⁴ Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://www.yale.edu>, <https://www.universityofcalifornia.edu/>; <https://www.ucdavis.edu/>; <https://uconn.edu/>; <https://hunter.cuny.edu/>; <https://www.umd.edu/>; <https://www.nyu.edu/>; <https://www.ox.ac.uk/>; <https://www.cam.ac.uk/>; <https://www.bc.edu/>; <https://www.harvard.edu/>; <https://www.uchicago.edu/>; <https://home.gsb.columbia.edu/>; <https://www.jhu.edu/>; <https://www.tilburguniversity.edu/>; <https://www.kuleuven.be/kuleuven/>; <https://www.ed.ac.uk/>; <https://www.uzh.ch/de.html>; <https://www.uni-frankfurt.de/>; <https://www.msu.ru/>; <https://msal.ru/>; <http://igpran.ru/>; <https://www.tsu.ru/>; <https://gubkin.ru/>; <https://www.rea.ru/ru/abiturientu/Pages/abiturientu.aspx>; <https://sgmu.ru>.

Columbia Business School, Johns Hopkins University (AQSh), Tilburg University (Niderlandiya), Katholieke Universiteit Leuven (Belgiya), The University of Edinburgh (Shotlandiya), The University of Zurich (Shvetsariya), Goethe University Frankfurt (Germaniya), Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti, Tomsk davlat universtiteti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot Akademiyasi, Saratov ijtimoiy-iqtisodiy instituti (Rossiya Federatsiyasi) da olib borilmoqda.

Jahonda pensiya ta'minotining huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq masalalarga oid xorijiy ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy yutuqlarga erishilgan, jumladan: pensiya uchun joriy qilingan imtiyozlar asoslantirilgan, pensiyani rasmiylashtirish ma'muriy tartib-taomillari asosida imtiyozli pensiyaga chiqish asoslari takomillashtirilgan (University of Yale, University of California, Davis, University of Connecticut, Hunter College, University of Maryland); migrantlarning (qochoqlarning) ijtimoiy himoyasini ta'minlash maqsadida, ularni aniqlash va ijtimoiy nafaqalar bilan ta'minlash uchun xalqaro tashkilotlarning moliyaviy resurslari hisobiga fondlar tashkil etish orqali qamrab olishning konseptual asoslari taklif etilgan (University of Oxford, Cambridge University); pensionerlarning xarid qobiliyati pasayishining oldini olish bo'yicha Medicare Part B.2 dasturi orqali ta'minlash choralari asoslab berilgan (Boston College); pensiya ta'minotining evolyutsiyasini zamonaviy biblometrik analizlar orqali aniqlash va bugungi kunda aholini qarishi, ishlovchilarni pensionerlarga nisbatan kamayib ketishi, ijtimoiy ta'minotni yanada takomillashtirish bo'yicha xususiy pensiya fondlarini ko'paytirish, davlat pensiyalari bilan birga sug'urta kompaniyalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha zarur choralar ko'rilishi taklif etilgan (Tilburg University, Netherlands; University of Murcia (Ispaniya), Chang'an University (Xitoy)), pensiya ta'minotini samarali tizimlarini tashkil etishda, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi hisoblanmish uch darajali; taqsimlovchi, majburiy va ixtiyoriy pensiya tizimlarini joriy qilish taklif etilgan (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti); fuqarolarning ijtimoiy ta'minot huquqlarini sud tomonidan himoya qilish asoslari (Rossiya Fanlar Akademiyasi).

Dunyoda pensiya ta'minotining huquqiy muammolari va ularning yechimini topishga qaratilgan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda: xususiy va nodavlat pensiya jamg'armalarini shakllantirish orqali pensiya tizimini differentsiatsiyalash; ko'p darajali pensiya tizimlarini joriy etish; mehnat migrantlarining pensiya ta'minoti orqali ijtimoiy himoyasini kuchaytirish; pensiya ta'minotining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish; pensiya ta'minotida kam ahamiyatli imtiyozlarni optimallashtirish orqali pensiya miqdorlarini ko'paytirish; taqsimlovchi, jamg'arib boruvchi va ixtiyoriy pensiya jamg'armalarining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish; pensiya miqdorlarini oshirish va pensiya to'lovlari uchun munosib daromadlar manbaini shakllantirish; xalqaro pensiya standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda pensiya ta'minotining huquqiy jihatlari A.Inoyatov, D.Ahmedov, M.Usmanova, M.Usmanov, Y.Tursunov, G.Sattarova, Sh.Ismoilov, Sh.Gaziyev, B.Umurzakov,

J.Abduraxmonxo‘jayev, G.Muradova, G.Inamdjanova, M.Mamasiddiqov, A.Xaitov, H.Xoliqulova, Sh.Davronov, J.Tursunov, T.Malikov, M.Tashxodjayeva, R.Ro‘ziev, Z.Shoimxonov, U.Ashurov, O.Muhitdinova, Sh.Allayarov, D.Toshmuxammedova, Z.Abdullayev, G.A.Kasimova, A.Haydarov singari milliy olimlarimiz tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarida, nashr etilgan adabiyotlarda muayyan darajada tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari tomonidan ijtimoiy ta‘minotning huquqiy masalalari V.Sh.Shayxatdinov, L.S.Mamut, L.N.Simanovich, A.A.Axmetov, N.O.Derkach, V.Oykan, Ye.Mojaev, A.Ya.Azarov, U.Baxodur, Ye.V.Malikova, O.A.Puchkov, D.N.Yermakov, R.M.Sivilev, L.T.Volchkova, R.I.Ivanova, A.A.Dorskaya, L.S.Rjanitsina, A.Ye.Kozlov, A.A.Razumov, Ye.Yu.Mayorova, N.A.Volgin, A.A.Romanov, A.A.Lazarev, L.V.Serkasevich, A.V.Kurtin, A.Polina, A.Sidorov, T.Guseva, Z.Borsiyeva, R.Mayers, A.Yu.Osipov, Ye.T.Gurvich, V.D.Roik, S.F.Oldenburger, M.D.Jaunitova, M.G.Nikiforova, A.Yu.Zelenina, M.L.Zaxarov, E.G.Tuchkova, Ye.A.Istomina, A.S.Kuzevanov, V.A.Agafonov, V.S.Andreyev, O.P.Berebina, A.L.Blagodir, Ye.A.Bobrov, G.S.Laptyev, Ye.Ye.Machulskaya, V.A.Acharkyan, V.Kudrov, R.N.Rashetnyak, M.Tonsanbayeva, S.Smironov, E.K.Xijniy, Ye.S.Klimova, Ye.A.Prudnikov, R.R.Nazmetdinov, A.R.Ijaeva, V.V.Starodubseva, A.A.Razumov, S.V.Fomina, S.A.Chirkov, E.Yakushev, N.M.Antyushina, K.V.Kirsanov, D.A.Fomin, T.I.Tokaeva, A.V.Zimakov, Yu.P.Voronov, A.Lelchuk, Yu.M.Gorlin, S.A.Aleshina, A.A.Berg, Ye.S.Lavrenova, O.V.Putrova, R.R.Rafikova, A.K.Solovev, A.Tabax, M.M.Aranjereyev, A.S.Vasileva va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Shu bilan birga xorijiy olimlardan G.Esping-Andersen, S.Schulpbach, J.P.Tabin, B.Ulrich, Robin Blackburn, D.Pieters, Vincent-Daviss, G.Alfredsson, J.Grimheden, B.G.Ramcharan, A.Zayas, Alster, Bendt, Pritchard, L.Villmora, K.Martino, M.Rashida, B.Kahlil-Wolf, M.Leimgruber, Jun Peng, M.Mine, D.Pieters, Ph.Gnaegi, B.James, Legge James, N.Barr, P.Diamond, M.Borella, E.Fornero, T.Samuels, E.Robertson, N.Drucker, R.Ratmuss, R.Lawson, B.Reed, R.Myers va boshqalar umumiy pensiya ta‘minoti sohasi doirasida tadqiqot ishlarini olib borgan.

Yuqoridagi ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy ta‘minot va uning huquqiy asoslarini takomillashtirishga oid masalalar O‘zbekistonda ilmiy jihatdan dissertatsion tadqiqot darajasida yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya mavzusi Jamoat xavfsizligi universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida olib borilgan “Mehnat qonunchiligi rivojlanish istiqbollarini belgilash va mehnat bozorini huquqiy tartibga solishning ilmiy-nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etish” (2022-2026) ilmiy loyihalari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida pensiya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

pensiya ta'minotining mohiyati va bugungi kundagi ijtimoiy zarurligini tadqiq qilish;

O'zbekistonda pensiya ta'minotining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish;

pensiya ta'minoti tizimining huquqiy prinsiplarini tasniflash;

pensiya tizimini isloh qilishning asosiy tendensiyalarini tadqiq etish;

aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida pensiya ta'minotining o'rnini va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

ijtimoiy ta'minotga oid xalqaro standartlar va ularning O'zbekiston pensiya qonunchiligiga joriy etilishini tahlil qilish;

yoshga doir pensiyaning aholini ijtimoiy himoyalashning muhim shakli sifatida qo'llanilishini tahlil qilish;

nogironlik pensiyalarining huquqiy asoslarini tasniflash;

boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish;

harbiy xizmatchilar pensiya ta'minotining huquqiy asoslarini tahlil qilish;

sudyalar pensiya ta'minoti huquqiy asoslarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

nodavlat pensiya ta'minotiga oid xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyotini o'rganish va tahlil qilish;

pensiya ta'minotining huquqiy asoslarini, shu jumladan O'zbekistonda pensiya ta'minotiga oid qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini pensiya ta'minotiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlarning pensiyaga oid qonunchiligi va amaliyoti, ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda analiz va sintez, tahlil qilish (tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, statistik va h.k.), umumlashtirish, kuzatish, mantiqiylik hamda statistik ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish kabi tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasida ilk marotaba 2024-yilda "aholini ro'yxatga olish" tadbiri o'tkazilishi rejalashtirilgani munosabati bilan jami pensionerlarni, shu jumladan ijtimoiy muassasalarda yashovchilarning ijtimoiy ahvolini o'rganish va ularni ro'yxatlash orqali pensionerlarning yagona ijtimoiy ma'lumotlar bazasini joriy qilish asoslantirilgan;

pensiyalarni tayinlashda, qayta hisoblashda, to'xtatilgan pensiyalarni tiklashda, boshqa davlatlardan ko'chib kelgan pensionerlarning pensiyasini hisoblab chiqarishda, shuningdek pensiyalarning miqdorini oshirishda "eng kam ish haqi" o'rniga "pensiyaning hisoblash bazaviy miqdori" kategoriyasini tatbiq etish lozimligi asoslantirilgan;

Pensiya va ijtimoiy nafaqalar tayinlashda aholi uchun sodda va qulay sharoitlar yaratish maqsadida pensiyalarni rasmiylashtirishda talab qilinadigan hujjatlarni ixchamlashtirish bo'yicha ma'muriy tartib-taomillarni joriy qilish asoslantirilgan;

fuqarolarga pensiya tayinlashda qaramog'ida mehnatga layoqatsiz oila a'zolari borligini tasdiqlash tartibiga oid yuridik faktlar faqatgina sud qarori bilan hal etilishi lozimligi asoslab berilgan;

qonunchilik bo'yicha I va II guruh nogironlik pensiyalarini oluvchi fuqarolarning pensiya ta'minoti qatoriga qo'shimcha ravishda Chernobil AES halokati oqibatida III guruh nogironi bo'lib qolgan shaxslarni qo'shish, boquvchisini yo'qotgan shaxslarning pensiya kafolatlarini 18 yoshdan 23 yoshga uzaytirish, bolani parvarishlash ta'tilining pensiya tayinlashda hisobga olinadigan davrini 3 yildan 6 yilga uzgartirish orqali fuqarolarning pensiya imtiyozlarini bosqichma-bosqich kengaytirib borish asoslantirilgan;

sudyalar va prokuratura organlarining darajali unvonlarga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan xodimlariga pensiya tayinlashda hisobga olinadigan maxsus ish stajlarini hisob-kitob qilishda ularning Oliy Majlis qonunchilik palatasi yoki Senat qarorlariga asosan muayyan lavozimlarga tayinlanib ishlagan davrlarini ham yuridik jihatdan tenglashtirish zarurligi dalillantirilgan;

ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga pensiyalar to'lash ushbu manzil koloniya joylashgan yerdagi Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan pensiyalarni mahkumlarning shaxsiy hisobvarag'iga o'tkazish orqali amalga oshirish tartibini joriy qilish asoslab berilgan.

Pensiya miqdorining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ish haqining qanday turlari aynan pensiya hisoblashda hisobga olinishi va kimlar pensiya emas, balki nafaqa olish huquqiga ega ekanligi hamda qanday nafaqa turlari mavjud ekanligi asoslantirilgan.

Fuqaro pensiya tayinlash to'g'risida Pensiya jamg'armasining bo'limiga bevosita tashrif buyurishi yoki elektron pochta orqali murojaat qilish huquqiga ega ekanligi hamda vafot etgan boquvchining 18-23 yoshdagi oila a'zosi, agarda O'zbekiston Respublikasidan tashqarida o'qisa, ushbu muassasaning o'quvchi yoki talaba ekanligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi pensiya tayinlash uchun asos ekanligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pensiya tayinlash uchun taqdim etiladigan hujjatlarni ko'rib chiqish muddatlarini uzaytirish, pensiyaga chiqqandan keyingi ishlagan davrini ish stajga qo'shish, ish haqlarini hisobga olish, o'qituvchilar uchun, davlat xizmatchilari uchun alohida pensiyalar tayinlash bo'yicha qonunchilikka takliflar ishlab chiqilgan;

fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimida pensiya miqdorlarini oshirish, jamg'armani samaradorligini ko'tarish va aholini kengroq qismini jalb qilish metodikasiga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

chet elda ishlayotgan fuqarolar kelajakda pensiya yoki nafaqa olishlari uchun hamda boshqa davlatlardan ko'chib kelgan yoki ko'chib ketgan fuqarolarning ish stajini pensiya tayinlashda hisobga olish maqsadida davlatlararo va mintaqalararo

bitimlarni tuzish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarga ekspert xulosalari ishlab chiqilgan;

fuqarolarning pensiya ta'minotiga oid huquqlarini himoya qilish bo'yicha nizolarni sudgacha hal qilishning yangi institutsional mexanizmlari bo'yicha takliflar ilgari surilgan;

pensiyaga oid masalalarni bevosita joylarda hal etish uchun mahallalarda pensiya jamg'armasining agentlarini shakllantirish, shuningdek ijtimoiy muhofaza bo'yicha yagona mas'ul davlat organi tashkil etish to'g'risida takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida foydalanilgan ma'lumotlar rasmiy manbalardan olingan, xalqaro tajriba va milliy qonun hujjatlariga asoslangan, shuningdek xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi vakolatli davlat organlari tomonidan taqdim etilgan dalolatnoma va ma'lumotnomalar asosida tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan nazariy va konseptual g'oyalar, ilmiy xulosalar va takliflar milliy pensiya ta'minoti tizimining normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi, sohaga oid ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy manba vazifasini o'taydi, shuningdek, tadqiqot ishi o'z ahamiyatiga ko'ra respublikamizda ilm-fan sohasining "Ijtimoiy ta'minot huquqi", "Pensiya ishi", "Sug'urta ishi" va "Pensiya ta'minotini boshqarish" kabi fanlarini metodologik jihatdan yanada boyitishda muhim ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot, "O'zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish Konsepsiya"sini takomillashtirishda, fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti sohasida huquqiy bilimlarini yuksaltirishda, pensiya ta'minoti tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarida, "Pensiya ishi", "Ijtimoiy ta'minot huquqi" va "Pensiya ta'minotini boshqarish" kabi fanlardan mashg'ulotlar o'tkazishda, ushbu fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar, risolalarni tayyorlashda, pensiya ta'minoti bo'yicha ish yuritish jarayoniga oid hujjatlarni rasmiylashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi, uslubiy qo'llanma vazifasini o'taydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

O'zbekiston Respublikasida ilk marotaba 2024 yilda "aholini ro'yxatga olish" tadbiri o'tkazilishi rejalashtirilgani munosabati bilan jami pensionerlarni, shu jumladan ijtimoiy muassasalarda yashovchilarning ijtimoiy ahvolini o'rganish va ularni ro'yxatlash orqali pensionerlarning yagona ijtimoiy ma'lumotlar bazasini joriy qilish bo'yicha taklifdan O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi qonuni 5, 21, 24-moddalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Agrar va suv ho'jaligi masalalari qo'mitasining 2020-yil 17-noyabrdagi 04/4-05-76-son ma'lumotnomasi). Takliflar pensionerlarning sog'lig'i, ijtimoiy ahvoli, turmush sharoitlari to'g'risida ma'lumotlar bazasi shakllantirishga va kelajakda ularning turmush farovonligini oshirishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

pensiyalarni tayinlashda, qayta hisoblashda, to'xtatilgan pensiyalarni tiklashda, boshqa davlatlardan ko'chib kelgan pensionerlarning pensiyasini hisoblab chiqarishda, shuningdek pensiyalarning miqdorini oshirishda "eng kam ish haqi" o'rniga "pensiyani hisoblash bazaviy miqdori" kategoriyasini tatbiq etish lozimligi bo'yicha takliflari O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunining 27, 28, 29, 31, 49-moddalarida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining 2021-yil 6-avgustdagi 05/1-02-143-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif pensiyalarni tayinlash, hisoblash, ular miqdorlarini oshirish bo'yicha aniq hisob-kitob mexanizmlarini joriy qilishga xizmat qilgan;

pensiyalar tayinlashda aholiga yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida pensiyalarni rasmiylashtirishda talab qilinadigan hujjatlarni ixchamlashtirish to'g'risida ma'muriy tartib-taomillarni joriy qilishga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi 252-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi nizom 22-bandida o'z ifodasini topgan (Vazirlar Mahkamasining Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o'zgarishlar, moliya-bank tizimi, davlat aktivlarini boshqarish, raqobatni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari kotibiyatining 2021-yil 9-avgust 02/1-2375-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif pensiya uchun murojaat qiladigan fuqarolarning ovoragarchiligini oldini olishga xizmat qilgan;

fuqarolarga pensiya tayinlashda qaramog'ida mehnatga layoqatsiz oila a'zolari borligini tasdiqlash tartibiga oid yuridik faktlar faqatgina sud qarori bilan hal etilishi lozimligi bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi 252-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi nizom 26-bandida o'z ifodasini topgan (Vazirlar Mahkamasining Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o'zgarishlar, moliya-bank tizimi, davlat aktivlarini boshqarish, raqobatni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari kotibiyatining 2021-yil 9-avgust 02/1-2375-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif pensiyaga oid yuridik faktlarni tasdiqlash tartibini takomillashtirishga xizmat qilgan;

qonunchilik bo'yicha I va II guruh nogironlik pensiyasini oluvchi fuqarolar pensiya ta'minoti qatoriga qo'shimcha ravishda Chernobil AES halokati oqibatida III guruh nogironi bo'lib qolgan shaxslarni qo'shish, boquvchisini yo'qotgan shaxslarning pensiya kafolatlarini 18 yoshdan 23 yoshga uzaytirish, bolani parvarishlash ta'tilining pensiya tayinlashda hisobga olinadigan davrini 3 yildan 6 yilga o'zgartirish bo'yicha takliflardan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunining 15, 19, 37-moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining 2022-yil 2-fevraldagi № 03/30-01-01-32/198 son ma'lumotnomasi). Mazkur takliflar aholi uchun pensiya imtiyozlarini yanada kengroq joriy qilishga xizmat qilgan;

sudyalar va prokuratura organlarining darajali unvonlarga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan xodimlariga pensiya tayinlashda hisobga olinadigan maxsus ish stajlarini hisob-kitob qilishda ularning Oliy Majlis qonunchilik palatasi yoki Senat qarorlariga asosan muayyan lavozimlarga tayinlanib ishlagan davrlarini ham yuridik jihatdan tenglashtirish zarurligiga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sudyalar va ularning oila a'zolari pensiya ta'minoti shartlari, me'yorlari hamda tartibi to'g'risida"gi nizomning 30-bandiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2021-yil 4-martdagi ma'lumotnomasi). Sud xodimlarining pensiya olish uchun zarur bo'lgan ish davrlarini yuridik kafolatlashga xizmat qilgan;

ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga pensiyalar to'lash ushbu manzil koloniya joylashgan yerdagi Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan pensiyalarni mahkumlarning shaxsiy hisobvarag'iga o'tkazish orqali amalga oshirish tartibini joriy qilishga oid takliflar O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 53¹-moddasida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash qo'mitasining 2019-yil 24-oktabrdagi 05/3-06-115-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif mahkumlarning pensiya ta'minoti olish huquqini kafolatlashga xizmat qilgan.

pensiya miqdorining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ish haqi tushunchasiga va Qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo'lmagan shaxslarga tayinlanadigan nafaqa tushunchalariga ishlab chiqilgan ta'riflari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-son "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizomda o'z ifodasini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o'zgartirishlar, moliya-bank tizimi, davlat aktivlarini boshqarish, raqobatni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari kotibiyatining 2022-yil 11-noyabrdagi ma'lumotnomasi). Ushbu taklif fuqarolarga pensiya tayinlashda hisobga olinadigan ish haqlari tarkibini aniqlashga va kimlar nafaqa olish huquqiga ega ekanligi hamda qanday nafaqa turlari mavjudligini aniqlashga xizmat qilgan.

fuqaroning pensiya tayinlash to'g'risida Pensiya jamg'armasining bo'limiga bevosita tashrif buyurishi yoki elektron pochta orqali murojaat qilishi, shuningdek vafot etgan boquvchining 18-23 yoshdagi mehnatga layoqatsiz oila a'zosi O'zbekiston Respublikasidan tashqarida o'qishi to'g'risidagi ma'lumotnoma pensiya tayinlash uchun asos ekanligi to'g'risidagi takliflari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-son "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizomda o'z ifodasini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o'zgartirishlar, moliya-bank tizimi, davlat aktivlarini boshqarish, raqobatni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-

quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari kotibiyatining 2022-yil 11-noyabrdagi ma'lumotnomasi).

Ushbu taklif pensiya tayinlashda fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliklarini oldini olishga va pensiya tayinlashda fuqarolarga qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 33 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, 19 ta ilmiy jurnallarda maqolalar, shundan 8 ta xorijiy nashrlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, o'n to'rt paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 250 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda pensiya tizimining nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida pensiya ta'minotining mohiyati va ijtimoiy zaruriyati, mamlakatimizda pensiya ta'minotining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari, pensiya ta'minoti tizimining huquqiy prinsiplari va ularning tasniflanishi o'rganilgan.

Tadqiqotchi ta'kidlaganidek, davlat pensiyalari davlat yo'li bilan aholini ijtimoiy ta'minotini amalga oshirilish shakllaridan biri sanaladi. Davlat pensiyalari, bu - fuqaroning avvalgi davrlardagi mehnat va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega foydali faoliyati hisobga olingani holda davlat moliyaviy jamg'armalari hisobidan unga butun umrga yoxud mehnat layoqati tiklanguniga qadar tirikchilik o'tkazishning asosiy manbai sifatida tekinga, qonunda nazarda tutilgan miqdordan kam bo'lmagan holda muntazam amalga oshiriladigan pul to'lovlaridan iboratdir.

Dissertant fikriga ko'ra, davlat o'z fuqarolarini har xil ijtimoiy ta'minot bilan ta'minlash uchun zarur choralarni amalga oshirishni o'z zimmasiga olar ekan, Konstitutsiyada ko'rsatilgan davlatning ijtimoiy ta'minot bo'yicha vazifasi, shuningdek, fuqarolarning ehtiyojlari va davlat imkoniyatlari o'rtasidagi muvozanatga asoslangan ijtimoiy xavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solish mexanizmini ishlab chiqishni belgilashi lozim.

Tadqiqotchi mualliflar (M.Usmanova, Y.Tursunov, G.Sattarova, B.Lazerev, P.Shayxatdinov, V.Andreyev, R.Ivanova, V.Acharkan, M.Zaxarov)ning fikr-mulohazarlari ilmiy tahlili asosida pensiya ta'minoti bo'yicha ilmiy-nazariy konsepsiyalar keltiradi. Xususan, ayrim olimlar pensiyani "ijtimoiy ta'minot asosida mehnatga layoqatsiz shaxslarga ijtimoiy yordam ko'rsatish" deb talqin etilayotganini qayd etadi. Mazkur yondoshuv "mehnatga qobiliyatsizlik konsepsiyasi" nomi bilan mashhur. Biroq bu konsepsiya ijtimoiy ta'minotni bir taraflama qilib uni cheklab qo'yadi.

Ikkinchi nuqtai nazar, alimentarlik konsepsiyasi bo'lib, bunga asosan ijtimoiy ta'minotning asosiy belgisi bo'lib, alimentar (ijtimoiy alimentar) xarakteri hisoblanadi. Bunga asosan ijtimoiy ta'minot o'z ichiga keksalar, mehnatga layoqatsizlar, onalar va bolalar haqida g'amxo'rlik, tibbiy yordam va bu sohadagi davlat ishlarini ham o'z ichiga oladi. Bunda alimentarlikning mohiyati shundan iboratki, davlat zimmasiga belgilangan hollarda yuqorida ko'rsatilgan shaxslar doirasiga g'amxo'rlik ko'rsatish yuklatiladi va ayni vaqtda pensiya, nafaqa va boshqa turdagi ijtimoiy ta'minot oluvchilar buning uchun davlat oldida hech qanday majburiyatlarni bajarmaydilar yoki boshqacha javob harakatlarini sodir etmaydilar.

Muallif fikriga ko'ra milliy qonunchilikda "pensiya ta'minoti"ning huquqiy kategoriya sifatida talqini ochib berilmagan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan toifalarning davlat g'amxo'rliqi siyosati bilan ijtimoiy ta'minot tizimi o'rtasida mustahkam uzviy bog'liqligi bor. Bu borada davlat siyosatini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri va eng asosiysi – bu mavjud pensiya ta'minoti tizimidir, degan xulosa qilingan. Pensiya tizimi ijtimoiy ta'minot tizimiga xos iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy, demografik funksiyalarni bajarishi bilan tarixan tavsiflangan.

Muallif turli xil fikrlarni umumlashtirib, pensiya ta'minoti aholini ijtimoiy himoya qilishning elementi degan xulosaga keladi. Ijtimoiy himoya tizimidagi eng ko'p sonli toifalar – bu pensionerlar toifasi bo'lib, bu davlatda qulay ijtimoiy muhitni yaratish uchun pensiya tizimini tashkil etish muhimligini ko'rsatadi.

Binobarin, tadqiqot ishida keltirilishicha, jahon amaliyotida pensiya ta'minoti ijtimoiy himoyaning ajralmas qismi hisoblanib, davlatning asosiy funksiyalaridan biri fuqarolarni pensiya ta'minotini bilan ta'minlash hisoblanadi. Davlatning tuzilishi va imkoniyatlariga muvofiq holda fuqarolarning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"ning 22-moddasida ham qayd etib o'tilgan. Unga ko'ra, pensiya ta'minoti – muayyan davlat qonunchiligida o'rnatilgan tartibda, asosiy daromad manbaini qariya, nogiron va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarni moddiy ta'minlashga yo'naltirilgan huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasidir.

Tadqiqotchi yuqoridagilar asosida pensiya ta'minotini keng qamrovli tuzilma – pensiya tizimi deb hisoblash mumkin, degan subyektiv nuqtai nazarini ilgari suradi. Bu tizim fuqarolarga moddiy yordam ko'rsatishga qaratilgan davlat tomonidan yaratilgan huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy institutlar va normalar yig'indisidan iborat bo'lib, uning tarkibiy elementlari quyidagilardan, ya'ni:

moliyalashtirish, boshqaruv, pensiya turlari va qonuniylik kategoriyalaridan iborat deya xulosaga kelgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Fuqarolarni ijtimoiy himoyalashda pensiya tizimidagi islohotlarning o‘rni”** deb nomlangan. Ushbu bobda O‘zbekistonda pensiya tizimini isloh qilishning asosiy tendensiyalari, aholini ijtimoiy himoyalash tizimida pensiya ta‘minotining o‘rni, pensiya ta‘minotiga oid xalqaro standartlar va ularning O‘zbekiston pensiya qonunchiligiga joriy etilishi tahlil etilgan.

Tadqiqotchi so‘nggi yillarda aholini ijtimoiy zaif qatlami bo‘lgan keksalar, imkoniyati cheklangan shaxslar va boquvchisidan ajralganlarni ijtimoiy himoyasini munosib ta‘minlash va bu sohada ijtimoiy adolat mezonlarini yanada mustahkamlash maqsadida amaldagi me‘yoriy huquqiy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritilib, mavjud muammolar bartaraf etishga va fuqarolarning farovon turmush kechirishlariga munosib harakat qilinayotganini, pensiya sohasida samarali huquqiy islohotlar amalga oshirilayotganini ta‘kidlaydi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta‘minoti sohasida huquqiy islohotlar mustaqillikning ilk yillardayoq boshlangan. 1993-yilda “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-maydagi “Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 250-son qarori, (shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 1994-yildagi 249-son va 319-son qarorlari, keyinchalik bekor bo‘lgan), O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 2-dekabrida qabul qilingan “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017-yil 13-martdagi PQ-2826-son “Pensiyalar va nafaqalar to‘lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari pensiya munosabatlarini huquqiy tartibga solish borasidagi qonunchilik tizimini tashkil etgan. Mazkur qonunchilik asosida pensiyalarni isloh qilish bo‘yicha dasturiy choralar ko‘rilgan.

Dissertant qayd etganidek, 2010-yillardan boshlab naqd pul muammosi mavjud bo‘lganligi sababli, fuqarolarning pensiya va nafaqa to‘lovlarini ularning roziligisiz bank plastik kartochkalarga asossiz ravishda o‘tkazilganligi, amalda esa to‘lov terminallari va bank kassa apparatlari tizimi yetarli darajada shakllanmaganligi, buning natijasida pensionerlarning norozilik murojaatlari soni keskin oshib ketganligi yaqqol ko‘zga tashlangan edi. Buni bartaraf etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2753-sonli qarori qabul qilingan va 2017-yil fevral oyidan boshlab, barcha turdagi pensiyalarni to‘lash hech qanday cheklovlarsiz to‘liq hajmda naqd pul shaklda amalga oshirila boshlangan.

Tadqiqotchi pensiyalarni o‘z egalariga yetkazib berishdagi har xil salbiy holatlarga ham to‘xtalib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-martdagi “Pensiyalar va nafaqalar to‘lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2826-son qarori bilan 2017-yil 1-iyuldan e‘tiboran

pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlar to'lanishi faqat "Xalq banki" tomonidan amalga oshirilishi tartibi to'g'ri o'rnatilganini qayd etadi.

Amaliy ishlar qatorida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrda PF-5597-son Farmoni bilan 2019-yil 1-yanvardan boshlab barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalar to'liq miqdorda to'lanishi ijobiy tajriba sifatida amaliyotga joriy qilinganligi e'tirof etiladi.

Dissertatsiyada jamiyatda o'z faoliyatini norasmiy tarzda amalga oshirib kelayotgan fuqarolarning kelajakdagi ijtimoiy himoyasini ta'minlash maqsadida ularga, shuningdek mavsumiy ishlarga pensiya huquqlarini kafolatlashga oid pensiya islohotlari xususida tahlillar qilingan. 2018-yil 1-iyuldan dehqon xo'jaligi va 4 sotihdan kam bo'lmagan tomorqa yerida band bo'lgan yoki ushbu uchastkada qoramol yoxud 50 boshdan kam bo'lmagan parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar tomonidan pensiya jamg'armasiga yiliga bazaviy hisoblash miqdorining bir barobari miqdorida sug'urta badali to'langan taqdirda, sug'urta badali to'langan yil mehnat stajiga bir yil hisobida joriy qilinishiga oid tajribalar keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlariga asosan mustaqil faoliyat bilan shug'ullanuvchi o'zini o'zi band qilgan shaxslar respublikada belgilangan bazaviy hisoblash miqdorida sug'urta to'lasalar bir yil stajga o'tishi belgilangan. Bundan tashqari ishlovchi fuqarolarga, ishlamaydigan turmush o'rtoqlari kelgusida pensiya ta'minotiga ega bo'lishlari uchun o'z daromadlaridan ixtiyoriy ravishda har oyda ijtimoiy soliq to'lash huquqi ham joriy qilingan.

Tadqiqotchining qayd etishicha, O'zbekistonda 2018-yil 5-iyuldagi PQ-3839-son qaror bilan 2018-yil 1-avgustdan xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolar tomonidan Pensiya jamg'armasiga pensiyani hisoblashning bazaviy miqdorining to'rt yarim baravari miqdorida yillik sug'urta to'lovlarini ixtiyoriy ravishda amalga oshirgan davrlari belgilangan tartibda mehnat stajiga bir yil hisobida qo'shilishiga oid ilg'or amaliyot yo'lga qo'yilgan. Chunki, joriy qilingan ish stajini hisobga olishdagi ushbu imtiyozlar dunyo davlatlarining pensiya qonunchiligida kam uchraydigan amaliyotdir.

Yuqoridagilar asosida shunday xulosaga kelindiki, o'tgan qisqa davr mobaynida pensionerlarning ijtimoiy ta'minotga oid huquqlarini yanada kengaytirish va pensiya tayinlash masalalaridagi har xil ovvoragarchilikni oldini olish maqsadida ko'pgina imkoniyatlar yaratilgan.

Dissertatsiyaning "**Davlat pensiya ta'minotini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatlari**" deb nomlangan uchinchi bobida yoshga doir pensiyaning aholini ijtimoiy himoyalashning muhim shakli sifatida qo'llanilishi, nogironlik pensiyalarini tayinlashning huquqiy asoslari tavsifi, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini tayinlanishini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatlari, harbiy xizmatchilar pensiya ta'minotining huquqiy asoslari tavsifi, sudyalarda pensiya ta'minoti huquqiy asoslarining o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimizda 4,3 mln.dan ortiq pensioner va nafaqa oluvchi shaxslar mavjud bo'lib, ulardan 3,1 mln.dan ortig'i yoshga doir pensiya oluvchilar, 419 ming nafardan ortig'i nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchilar 221 ming nafarni,

shuningdek, nafaqa oluvchilar 580,6 ming nafarni va respublikada o'rtacha pensiya miqdori 1034,5 ming so'mni tashkil etadi.

Fuqarolarni ijtimoiy himoyalashning asosiy turlaridan biri bu pensiyalar. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni davlat pensiya ta'minotini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat bo'lib hisoblanadi. Qonunga asosan pensiya turlari uchga bo'linib, ular yoshga doir, boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyalaridir.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, yoshga doir pensiya bu, qonun bilan belgilangan ma'lum yoshga to'lganda va talab qilingan mehnat stajiga ega bo'lganda yuzaga keladigan va umrbod ta'minlanadigan to'lov turi bo'lib, odatiy mehnat sharoitlariga ega bo'lgan davlatlarda har xil umumiy pensiyaga chiqish yoshlari belgilangan. Jumladan:

avval (erta) (*early retirement age, ERA*) - pensiya olish uchun minimal yosh, odatda bunday pensiyalar miqdori ancha past hisoblanadi;

normal (odatiy) yosh (*normal retirement age, NRA, full retirement age, FRA*) – bunday pensiya chiqish yoshida pensiyaga chiqishga murojaat qilganlarga to'liq pensiya to'lanadi. Pensiyaga chiqishda talab qilinadigan ish staji har qaysi davlatda har xil hisoblanadi, odatda kamida 20 yil ish staj talab qilinadi. Ayrim davlatlarda ushbu yoshdan kechroq rasmiylashtirishga murojaat qiladiganlarga to'lovlari miqdori oshirilishi ko'zda tutilgan.

Dissertant yoshga doir pensiya fuqaroning mehnat qobiliyati yo'qolishi yoki pasayishi bilan bog'lanmasligini ta'kidlab, muayyan yoshga yetish va qonunda nazarda tutilgan hajmdagi ish staji mavjudligi asosida butun umrga tayinlanishini qayd etadi. Yoshga doir pensiyani aslida fuqaroning o'tgan davrlardagi mehnat faoliyati, jamiyat boyliklari ko'payishiga qo'shgan shaxsiy hissasi uchun jamiyat unga beradigan moddiy ta'minot deya e'tirof etadi.

Tadqiqot ishida xorijiy tahlillar asosida, ko'pgina davlatlarda tug'ilish keskin kamayib, umr ko'rish yoshi uzayib ayrim davlatlarda hattoki aholisi soni kamayib borayotgani, bu esa o'z navbatida tibbiy, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammolarni ham keltirib chiqarayotgani haqida mulohaza yuritiladi. Jumladan, demografik holat ta'sir qilib kelayotgan davlatlarda solidar tizimdan majbur jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga o'tish holatlari kuzatilgan. To'langan badallarni o'rtacha umr ko'rish yoshi keskin oshib borayotgan davlatlarda taqsimot tizimida yetishtirib berish, ya'ni mablag' yetishmovchiligi sababli davlat uchun juda ko'p muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, bu holat O'zbekiston sharoitiga ham xos bo'lishi mumkinligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1994-yilda tasdiqlangan imtiyozli ro'yxatlarni qayta ko'rib chiqish lozimligi asoslantiriladi.

Tadqiqot ishida asosiy pensiya turlaridan biri sanalgan nogironlik pensiyalari ham tadqiq etilgan. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuniga ko'ra sog'lig'i yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi, lekin nogironlik pensiyalari qonunchilikda belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Muallif nogironlik pensiyalariga chiqish sabablarini, nogiron bo'lib qolgan va belgilangan tartibda nogiron ekanligi tasdiqlangan fuqarolar uchun nogironlik

pensiyalarini ahamiyatini, jamiyatda nogiron shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etib, nogironlar pensiya huquqlarini takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarini ilgari surgan.

Dissertatsiya ishida vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolarini qo'llab-quvvatlashning asosiy turi sifatida boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari ham tadqiq etilgan.

Amaliyotdagi ayrim muammoli vaziyatlar tahlil qilingan. Masalan, voyaga yetmagan bolaning ota-onasi hayot bo'lsada bobo yoki buvisiga farzandlikka berish to'g'risida tegishli tashkilotlarning qarorlari chiqib, oradan hech qancha vaqt o'tmasdan bobo yoki buvi vafot etib boquvchisini yo'qotganlik pensiyasiga chiqish uchun murojaatlar uchrab turganligi e'tirof etilgan. Ushbu vaziyatlar qonunchilikda ijobiy hal etilmagan.

Bundan tashqari, muallif chin yetim bolalarga to'liq davlat ta'minotida turgan davrida, oyiga ota-onasidan ajralganlik uchun hisoblab chiqarilgan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi miqdorida, shuningdek ota-onasining biridan ajralgan va to'liq davlat ta'minotida turgan bolalarga oyiga hisoblab chiqarilgan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi miqdorining 50 foizi miqdorida pensiya to'lash takliflarini ilgari suradi.

Tadqiqot ishining ushbu bobida harbiy xizmatchilar pensiya ta'minoti o'rganilib, ushbu 1990-yilning 28-aprelida qabul qilingan "Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga asosan amalga oshirilib kelinayotgani ta'kidlanadi. Xususan, qonunga muvofiq harbiy kontingent va ularning oila a'zolariga ko'p yillik xizmat pensiyasi, nogironlik pensiyasi, harbiy xizmatchi halok bo'lganida yoki vafot etganida, ularning oila a'zolariga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanishi nazarda tutilgan.

1992-yilning 15-mayida Toshkent shahrida imzolangan "Mustaqil davlatlar hamdo'stligi qatnashchilari bo'lgan davlatlarning harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolarini pensiya ta'minoti va harbiy xizmatchilarning davlat sug'urtasi tartibi to'g'risida"gi Bitimning 1-moddasiga asosan, harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti ular qaysi davlatda istiqomat qilsalar, o'sha davlatning qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi. Bu borada mazkur davlatlar o'z qonunlarini qabul qilgunlariga qadar, sobiq ittifoq qonunchiligi bilan amalga oshiriladi. Muallif fikriga ko'ra, yuqoridagi sobiq ittifoq davrida qabul qilingan qonun eski bo'lib, ushbu tizimda yangi qonun ishlab chiqish taqozo etadi.

Hozirda bu borada tegishli ishlar amalga oshirilgan bo'lib, "Harbiy xizmatni o'tagan, ichki ishlar organlari va bojxona organlarida xizmat o'tagan shaxslar hamda ularning oila a'zolarining pensiya ta'minoti to'g'risida" qonun loyihasi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning "**O'zbekistonda pensiya ta'minotiga oid qonunchilikni rivojlantirish istiqbollari**" deb nomlangan to'rtinchi bobida nodavlat pensiya ta'minotiga oid rivojlangan davlatlar tajribasi, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining huquqiy asoslarini rivojlantirish, O'zbekistonda pensiya ta'minotiga oid qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari tadqiq etiladi.

Xususan, sotsiologik tadqiqotlarda keltirilgan ijtimoiy himoya modullari (liberal, korporativ va sotsial-demokratik modul) amal qilib turgan davlatlardagi mavjud pensiya ta'minoti tizimlarini xuquqiy tahlillari amalga oshirilgan.

Buyuk Britaniya, AQSh, Shvetsiya, Kanada, Avstraliya kabi davlatlarning liberal moduli, Avstriya, Germaniya, Italiya, Fransiyaning korporativ (konservativ) moduli, Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya, Daniya, Niderlandiya va Shvetsariya kabi mamlakatlarning sotsial-demokratik modullari negizida shakllangan pensiya tizimlari atroflicha tadqiq etilgan.

Shular asosida dissertant ta'kidlashicha, sotsial soha butun dunyoda jahon jamoatchiligining nigohidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Binobarin, Yevropa, MDH mamlakatlari uchun ham pensiya ta'minoti muhimdir.

Biroq, muallif fikriga ko'ra, o'tgan yillar davomida MDH mamlakatlarida ijtimoiy himoya siyosati zaruriy normativ - huquqiy bazasi yetarlicha takomillashtirilmaganligi sababli uni to'laqonli amalga oshirish qiyin kechdi. Ba'zan qabul qilingan qonunlar mavjud iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni to'liq hisobga olmagan. Bunaqa sharoitda aholini ijtimoiy himoyalashda institutsional islohotlar amalga oshirishni davom ettirish uchun yetarlicha sharoitlar mavjudligi haqida gapirish mushkul bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi ham 1992-yil 13-martda "MDH mamlakatlari fuqarolarining pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Bitim, 1994 yilda "Mehnat migratsiyasi va migrant mehnatkashlar ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Bitimlarga qo'shilgan. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Moldova, Gruziya va Ozarboyjon Respublikalari bilan ikki tomonlama bitimlarga ega. Bu bitimlarda boshqa davlat fuqarosiga o'z fuqarosi bilan teng ravishda ijtimoiy ta'minot, shu jumladan pensiya olish huquqi ko'zda tutilgan.

Dissertant fikriga ko'ra, MDH mamlakatlarining aksariyati uchun xos xususiyat sifatida aholini ijtimoiy himoyalashning sug'urta tizimlarini kengaytirish prinsipi rivoj topmoqda.

Ittifoq davlatlari jumladan, Markaziy Osiyo va xususan O'zbekiston Respublikasida, mustaqillikni mustahkamlash, yangi iqtisodiy tizimning shakllanishi ijtimoiy himoya qilish, xususan pensiya ta'minoti borasida bir qator tadbirlarni amalga oshirish, pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirib borishga bo'lgan talabni yanada kuchaytiradi.

Davlat pensiya ta'minoti orqali majburiy davlat ijtimoiy sug'urta badallari hisobidan aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga pulli to'lovlar vositasida yordam ko'rsatadi. Bu yordam ularning zarur turmush darajasini kafolatlaydi. Bu to'lovlar ish beruvchilar va mehnatkashlarning sug'urta badallari (ijtimoiy soliqlar), davlat tomonidan ajratiladigan dotatsiyalar hisobiga moliyalashtiriladi.

Ammo, muallifning fikriga ko'ra, jahon amaliyotida bulardan tashqari jamoa ijtimoiy sug'urtasi va shaxsiy sug'urta tizimlari ustuvor darajada ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, jamoa sug'urtasi, majburiy yoki ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi mumkin. Bunda ish beruvchilar va xodimlarning sug'urta badallari to'lov manbalari bo'lib xizmat qiladi. Shaxsiy sug'urta esa ixtiyoriy ravishda, fuqarolarning sug'urta badallari hisobiga amalga oshiriladi.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, bozor iqtisodiyoti tizimi aholining kam ta'minlangan, nogiron, qarib qolganlar turmush darajasini yaxshilash va pasayishini oldini olish borasida doimiy ravishda ish olib borish va sug'urta tizimlarini rivojlantirish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Shu bilan birga, tug'ilish kamayib, o'rtacha umr ko'rish yoshi oshib borishi aholi orasida qariyalar salmog'i oshishi bilan belgilanayotgan demografik vaziyatning o'zgarishi ham (BMTning tahliliga ko'ra 2040-yillarga borib pensionerlar salmog'i mehnatga layoqatli aholi salmog'iga nisbatan ikki barobar ortishi bashorat qilingan) hozirgi vaqtda pensiya ta'minotini islox qilishga jahon hamjamiyati tomonidan bo'layotgan qiziqishning yanada oshishiga sabab bo'lmoqda.

Dissertant ta'kidlagandek, bu kabi muammolar respublikamiz pensiya ta'minoti tizimi uchun ham yot emas. Ularni hal etish maqsadida pensiya ta'minotini takomillashtirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan konsepsiya ishlab chiqish va tasdiqlash zarur. Unda pensiya sug'urtasini davlat shakli bilan bir qatorda nodavlat shakllarini ham joriy etish hamda "Nodavlat pensiya fondlari to'g'risida"gi qonunni qabul qilish borasida ish olib borilishi maqsadga muvofiq.

Yuqorida berilgan takliflarga asosan boquvchisini yo'qotganlik yoki nogironlik pensiyalarini qat'iy summada belgilash, MDH bitimini qayta ko'rib chiqish, Pensiya jamg'armasi daromadlar qismini mustahkamlash, zahira mablag'lar miqdorini kamida 10 oyga yetkazish, nodavlat fondlar faoliyatini tashkil etish kabi masalalari hal etilsa pensiya jamg'armasi kelajakda fuqarolarni munosib pensiya bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mazkur bobda, muallif jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini tadqiq etib, uning fuqarolik huquqiy jihatlari aks ettirilmasdan normativ hujjatlarda aksincha ommaviy huquqiy munosabat sifatida urg'u berilayotganini noo'rin deb hisoblaydi. Shu tufayli taraflar (badal to'lovchilar va xalq banki muassasalarining o'zaro huquq hamda majburiyatlari, javobgarliklari tarifi bir tomonlama xususiyatga – davlat huquqiy xususiyatiga ega. Ya'ni, jamg'arilib boriladigan pensiya tizimi monopoli bo'lganligi sababli, ushbu pensiya tizimining ko'lamini kengaytirish orqali raqobatni kuchaytirish, ya'ni boshqa moliyaviy institutlarda, tijorat banklarida ham jamg'arilib boriladigan pensiya tizimlarini tashkil etish lozim.

Tadqiqotchi jamg'arib boriladigan pensiya tizimidagi muammolarga to'xtalib, pensiya jamg'armasiga to'lanadigan badallar miqdori yildan-yilga o'zgartirilib, aksariyat hollarda kamaytirilishi natijada fuqarolarning intilishlari susayib borayotganini, shuning uchun badallar miqdorlarini oshirish va xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish lozimligini qayd etadi.

Muallif fikrga ko'ra, jamg'arib boriladigan pensiya fondining fuqarolarga ko'rsatadigan xizmat turlari deyarli yo'q, bu esa o'z navbatida jamg'armaga a'zolari jalb etishni qiziqitirmay qo'yadi, shundan kelib chiqib har xil moliyaviy xizmatlar taklif etish, ya'ni a'zolar uchun uy joylar qurishga, avtomashina olishga, maishiy texnika olishga, davolanish va sanatoriya kurortlarga borishga imkon yaratish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarga moliyaviy ko'mak turlarini joriy qilish maqsadga muvofiq.

Amaliy muammolardan biri, bu jamg'armaga qo'shimcha a'zolari jalb qilish ishlari umuman tashkil etilmagan. Masalan, yakka tartibdagi tadbirkorlarni yoki norasmiy sektorda bandlarni jalb qilishga etarlicha harakat qilinmagan. Muallif ularni jalb qilish maqsadida tadbirkorlarga boshlang'ich aylanma summalarini to'lash, o'zini-o'zi band qilgan shaxslarga kelajakda kafolatlangan yuqori foizlarda to'lovlar berish mexanizmlarini joriy qilish orqali jalb qilishni taklif etadi. Fuqarolarga ularning xohishlariga ko'ra istalgan vaqtda mablag'laridan foydalanish huquqini berish, yirik iqtisodga ega tashkilotlarda, kompaniyalarda, banklarda alohida jamg'arib boriladigan fondlar tashkil etish bo'yicha o'z takliflarini ilgari suradi.

Xulosa sifatida, "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni fuqarolik qonunchiligi nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ham jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotiga oid shartnomalarni tavsiflovchi, uning taraflari huquq va majburiyatlari, javobgarliklarini belgilovchi yangi bob kiritish taklif etiladi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish mavzusidagi tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar hamda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Pensiya ta'minoti tushunchasiga quyidagicha ilmiy-nazariy mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: *"Pensiya ta'minoti – bu ma'lum yoshga yetganda va qonunchilikda talab qilingan mehnat stajiga ega bo'lganda, mehnat qobiliyatini qisman yoki to'liq yo'qotganda vakolatli organ tomonidan ma'lum muddatga yoki bir umrga nogironlik belgilanganda, boquvchisini yo'qotganda davlat tomonidan muntazam ravishda, umrbod yoki belgilangan muddatga qadar amalga oshiriladigan pul to'lovining bir turidir"*.

2. Jamiyatda "pensiya" yoki "nafaqa" so'zlarini qo'llashda ayrim noaniqliklar mavjudligi hamda "nafaqa" so'zining izohli ma'nosi va qo'llanish maqsadi ilmiy tahlildan kelib chiqqan holda nafaqa tushunchasiga quyidagicha ta'rif ishlab chiqildi. ***Nafaqa** – Qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo'lmagan shaxslarga nafaqa yoshiga to'lishi, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovidir. (ushbu taklif Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-son qarorida o'z ifodasini topgan)*

3. Pensiya ta'minotining yuridik tabiati ochib berildi.

Pensiya ta'minoti mustaqil va kompleks huquq sohasi hisoblangan ijtimoiy ta'minot huquqining instituti bo'lib, bu institut ijtimoiy ta'minot huquqi normalari bilan tartibga solinadi. Pensiya ta'minoti ijtimoiy ta'minot huquqining eng muhim, asosiy va ayni damda murakkab institutlaridan biri hisoblanadi, binobarin, u o'z ichiga bir necha institutlarni ham qamrab oladi. Ushbu institutlar yoshga doir pensiya, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiya, to'liqsiz ish staji bilan

tayinlanadigan pensiya instituti, imtiyozli tarzda tayinlanadigan pensiya, ish haqi va ish staji institutlari, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti, nodavlat hamda xususiy pensiya fondlarining ta'minotlari va shunga o'xshash boshqa ijtimoiy institutlardan tarkib topgan. Ijtimoiy ta'minoti huquqi normalari pensiya ta'minotining mazmuni, shakli va usullarini belgilab beradi. Pensiya ta'minotini ta'minlash jarayonida yuzaga keluvchi huquqiy munosabatlar ijtimoiy huquqiy munosabatlar tizimiga kiradi.

4. Pensiya ta'minoti tizimining huquqiy tamoyillari mohiyati tahlil etildi. Pensiya ta'minotining huquqiy tamoyillari umumiy va maxsus tamoyillarga bo'linadi. *Pensiya ta'minotiga doir ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda davlat va huquq nazariyasining quyidagi umumiy tamoyillaridan foydalaniladi: qonuniylik; ijtimoiy adolat; oshkoralik; ishontirish va shaxslarning huquq va burchlarining birligi va boshqalardir.*

Pensiya ta'minotini tashkil etish hamda u yoki bu shakldagi ijtimoiy yordamlardan foydalanishning maxsus tamoyillari tasniflandi: Ular,

pensiya ta'minotining umumiyligi;

pensiya ta'minotining manzilliligi;

aniq yo'naltirilganligi hamda boqimandalikka yo'l qo'yilmasligi;

fuqarolarning bevosita o'zlari ishtirok etishlari;

pensiya ta'minotining turli shakllarda amalga oshirilishi;

pensiya ta'minotini amalga oshirilishi ustidan davlat va jamoat nazoratining o'rnatilganligi kabi maxsus tamoyillardan iboratdir.

5. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunda nogironlik pensiyasi yoki nogiron tushunchasiga tarif berilmagan.

Shu sababli bu ikkala tushunchaga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Nogironlik pensiyasi – shaxs ma'lum muddatga yoki bir umrga mehnat qobiliyatini yo'qotganligi uchun vakolatli organ tomonidan belgilanadigan nogironlik guruxi hamda mehnat stajining mavjudligiga mutanosib ravishda tayinlanadigan har oylik pul to'lovidir.

Nogiron shaxs deganda - jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlaridan biri yoki bir nechtasi borligi tufayli ma'lum miqdorda turmush faoliyati cheklangan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan, shuningdek ma'lum bir ijtimoiy yordamga yoki himoyaga muhtoj bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs tushuniladi.

6. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasiga ilmiy-nazariy mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. *Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi deganda, marhum boquvchi shaxsning oldingi mehnat faoliyati va uning uchun budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ijtimoiy sug'urta badallari (2019-yildan ijtimoiy to'lov, 2020-yildan ijtimoiy soliq) to'lab borilganligi bilan bog'liq ravishda tayinlanadigan mehnat pensiyalarining bir turi sanaladi va uning tayinlanish shartlari amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.*

7. Pensiya ta'minotining huquqiy asoslarini takomillashtirishning tarixiy shakllanishi va rivojlanishini quyidagicha to'rt davrga bo'lib o'rganish taklif etildi:

birinchi bosqich – qadimgi davrda ijtimoiy muxofaza bo'yicha norma va qoidalarining shakllanishi (ushbu bosqichda ijtimoiy ta'minot aksariyati xayr-exson qoidalariga asoslangan) bosqichi;

ikkinchi bosqich – o'rta asrlarda ilk pensiya ta'minoti to'g'risida qonunchilik hujjatlarining qabul qilinishi bosqichi;

uchinchi bosqich - XIX-XX asrlarda (sobiq ittifoq davrida) pensiya ta'minotining mustaqil institut shaklida mustahkamlanishi va rivojlanishi bosqichi;

to'rtinchi bosqich – pensiya ta'minoti qonunchiligi hujjatlari rivojining zamonaviy bosqichi.

8. Ijtimoiy himoyaning mazmuni va ta'minlashning maqsadi aniqlandi. Fuqarolarni ijtimoiy himoya bilan ta'minlashning asosiy maqsadi quyidagilar;

birinchidan ijtimoiy himoya - extiyojmand insonlarni qo'llab-quvvatlash insonning tabiiy idroki hisoblanadi. Ijtimoiy himoya insonlar vujudga kelishidan boshlab amal qilgan va doimiy shakllarini o'zgartirib borgan;

ikkinchidan nochorlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish davlat siyosiy hokimiyat vakolatlarini o'ziga olgan. Fuqarolar davlat to'g'risidagi fikr mulohazalaridan qat'iy nazar, davlat siyosiy-huquqiy jihatdan ularga nisbatan ijtimoiy muhofazani o'z zimmasiga olganini anglatadi;

uchinchidan davlat yashash minimumlarni belgilashda xalqning turmush tarzidan kelib chiqib belgilaydi va ularni belgilangan yashash minimumlari darajadasida ta'minlaydi.

9. Respublikamizda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirishning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi:

tizimda ishtirok etishining majburiy va ixtiyoriy usullari mavjudligi;

majburiy shaklda ishtirok etish, boshqa davlatlardan farqli o'laroq ish beruvchi tomonidan to'lov amalga oshirilishi;

badallar Xalq bankining tuzilmasiga o'tkazib borilishi va umumlashtirilishi hamda fuqarolar pensiya olish huquq paydo bo'lgandan keyin to'lab berilishi;

o'tkaziladigan majburiy badalning ishlovchiga ta'siri yo'qligi;

jamg'arib borilgan mablag'larni olish huquqi davlat pensiyalaridan biriga huquq paydo bo'lgandan keyin ruxsat berilishi;

istalgan muommulaga layoqatli fuqaro jamg'arib boriladigan tizimda ishtirok etish kabi o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi.

10. Pensiya ta'minotining huquqiy hujjatlari ustidan nazorat qilish tizimi quyidagilarni qamrab oladi:

1) **obyekti** – qonun hujjatlari, pensiya tizimining huquqiy normativlari, standartlar va talablar, ijtimoiy ta'minotni muhofaza qilish tartiblari, ijtimoiy ta'minot huquqi normalari va qoidalari, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar va aholini ijtimoiy muxofaza qilish dasturlari;

2) **subyekt** - pensiya ta'minoti munosabatlari sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari;

3) **usuli** - javobgarlik choralarini qo'llash, tekshirishlarni amalga oshirish, pensiya qonunchiligi hujjatlari buzilishining sabablari va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha majburiy yozma ko'rsatmalar berish, qonun hujjatlari talablariga rioya qilishlari yuzasidan nazoratni amalga oshirish.

11. Mehnat staji institutining tarkibiy qismlari ko'rsatildi. Pensiya tayinlashda hisobga olinadigan ish staji uchta tarkibiy qismga bo'linadi:

birinchi tarkibiy qism – haqiqiy mehnat faoliyati (ishlagan davri, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanganligi va boshqalar);

ikkinchi tarkibiy qismi – ish stajiga qo'shib hisoblanadigan davrlar (harbiy xizmat, bola parvarishida bo'lgan davr, oliy ta'lim muassasalarda kunduzgi o'qish davri, harbiy ofitserlarning ayollari, agar ular turmush o'rtog'lari bilan birga yashagan davrida ish joylasha olmaslar, diplomatlarning turmush o'rtog'lari va hakovolar);

uchinchi tarkibiy qismi – ish stajiga imtiyozli tarzda qo'shiladigan davrlar (zararli va og'ir ishlarda talab qilingandan ortiqcha ishlagan davri, urush davrida, front ortida ishlagan davrlari va boshqalar).

12. Pensiya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirishning asosiy vositalari ko'rsatildi. Unga ko'ra, pensiya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirishni ta'minlash vositalari bo'lib davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan pensiya ta'minoti bilan ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish, ularning ijrosini nazorat qilish, huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlarining pensiya qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash faoliyati, yuridik javobgarlik choralari qo'llash amaliyoti hisoblanadi.

13. Pensiya ta'minotini huquqiy tartibga soluvchi normativ hujjatlarda "yoshga doir pensiya" "qarilik" tushunchasi bilan bog'lanadi. Yoshga doir pensiya bilan "qarilik" tushunchasi mazkur pensiya turini olish uchun majburiy zaruriy shart emasligi haqidagi xulosaga kelindi va yoshga doir pensiya tushunchasiga ilmiy-nazariy mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi.

Yoshga doir pensiyada umuman pensiyalarga xos bo'lgan barcha xususiyatlar mavjud. Shu bilan birga tarifda pensiyaning ushbu turiga xos bo'lgan xarakterli belgilar ham mavjud bo'lib, fuqarolarning yoshga doir pensiyasi mehnatga qobiliyatsizlik uchun emas, balki uzoq muddat ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etgani, jamiyat uchun ishlagan shaxslarni mehnatdan ozod qilish, ularga muayyan moddiy ta'minotni kafolatlash maqsadida tayinlanadi. Ushbu qonunga asosan ayollar 55 yosh, erkaklar esa 60 yoshdan yoshga doir pensiyaga chiqishlari belgilangan. Aynan ushbu qonun imkoniyatlaridan kelib chiqib, 54 yoshdan, 53 yoshdan, 58 yoshdan, 50 yoshdan, 45 yoshdan va hatto 40 yoshdan ham yoshga doir pensiyaga chiqish mumkinligi nazarda tutiladi.

Yoshga doir pensiya – shaxs ma'lum yoshga yetganda va qonunchilikda talab qilingan minimal ish stajga ega bo'lishligi hamda jamiyat boyligi ko'payishiga qo'shgan shaxsiy hissasi uchun davlat tomonidan rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan kam bo'lmagan miqdorida har oylik to'lanadigan moddiy ta'minotdir.

14. Tadqiqot natijasida "pensiya tizimi" tushunchasiga ilmiy-nazariy mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi.

Pensiya tizimi - fuqarolarga moddiy yordam ko'rsatishga qaratilgan davlat tomonidan yaratilgan huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy institutlar va normalar yig'indisidan iborat. Pensiya tizimining tarkibiy elementlari quyidagilardan: moliyalashtirish; boshqaruv; pensiya turlari va qonuniylikdan iboratdir.

15. Ijtimoiy ta'minotga oid **xalqaro standartlarining** asosiy huquqiy elementlari tafsiflandi:

birinchidan – xalqaro standartlar xalqaro hujjatlar bilan mustahkamlangan (masalan xalqaro tashkilotlarning hujjatlarida yoxud davlatlararo bitimlarda) bo'ladi;

ikkinchidan - ijtimoiy ta'minot sohasidagi munosabatlarni xalqaro va davlat ichki tartib-qoidalarini birgalikdagi hamkorlik vositasida tartibga solishga yo'naltirilgan;

uchinchidan ijtimoiy ta'minot asosini aniqlash va belgilash imkonini beruvchi modul xususiyatiga ega bo'ladi, bu esa o'z navbatida ishtirokchi davlatlarga yetarli darajada moliyaviy va moddiy resurslarga ega bo'lganda, ijtimoiy kafolatlar darajasini oshirish imkonini beradi;

to'rtinchidan, ijtimoiy ta'minotni xalqaro-huquqiy tartibga solish mexanizmida huquqiy vosita sifatida ishtirok etadi;

beshinchidan ular madaniyatli (sivilizatsiyalashgan, rivojlangan) jamiyatning aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash shartlari va darajasi to'g'risidagi zamonaviy tassavurga javob bera oladigan ijtimoiy ta'minotning milliy tizimini shakllantirishga yo'naltirilgan;

oltinchidan, ular mustahkamlangan konvensiya yoki shartnomalarni ratifikatsiya qilingan holda, davlatning ixtiyoriy qabul qilinadigan xalqaro majburiyatlari hisoblanadi.

16. "Ijtimoiy himoya" tushunchasi «ijtimoiy ta'minot» tushunchasidan kengroq ma'noni bildiradi. Chunki ijtimoiy ta'minot tushunchasi ko'proq moddiy ta'minot ma'nosida kelsa, ijtimoiy himoya bu - bandlik, ta'minot, ta'lim, tibbiyot sohasidan tortib, davlat barqarorligi, jamiyat va shaxs daxlsizligi, mulk va ekoglogiya huquqlarni ham o'z ichiga oladi.

"Ijtimoiy himoya" tushunchasiga ilmiy-nazariy ta'rif ishlab chiqildi. ***Ijtimoiy himoya** - keng ma'noda davlat ijtimoiy siyosatining asosiy maqsadi hamda bosh yo'nalishidan iborat bo'lib, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish hamda kafolatlash, inson uchun munosib turmush sharoitini ta'minlash, obyektiv sabablar bilan nochor va yordamga muhtoj insonlarga moddiy va boshqa shakllarda ko'mak berish, jamiyatda ijtimoiy adolat qaror topishiga erishish yo'lida davlat hamda jamiyat tomonidan izchil, muntazam amalga oshiriladigan ijtimoiy huquqiy tadbirlar majmuidan iboratdir.*

II. Amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunining 37-moddasida ish stajiga qo'shib hisoblanadigan mehnat faoliyati turlari belgilangan. Ushbu moddada yoshga doir pensiya tayinlanganidan keyingi ishlangan vaqt, pensiyani hisoblab chiqarish uchun stajga qo'shib hisoblanmaydi deb belgilab qo'yilgan. Ma'lumki fuqarolar tomonidan pensiya tayinlangandan so'ng ularning mehnat faoliyatidan to'lanadigan pensiya badallari bo'yicha hech qanday hisob-kitoblar nazarda tutilmagan. Shuni hisobga olgan holda

qonunning 37-moddasi 19-xatboshisidagi **“hisoblanmaydi”** so‘zi o‘rniga **“hisoblanadi”** so‘zini kiritish taklif etiladi.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonunining 31-moddasi o‘rtacha oylik ish haqini aniqlashning umumiy tartibi deb nomlangan. Ushbu moddaning birinchi xatboshisida pensiyani hisoblab chiqarish uchun, ishdagi mavjud tanaffuslardan qat‘i nazar, oxirgi o‘n yillik mehnat faoliyati davomidagi istalgan ketma-ket besh yildagi (pensiya so‘rab murojaat etgan kishining tanlovi bo‘yicha) ish haqi olinadi deb belgilangan. Ushbu moddaning birinchi xatboshisidagi **“oxirgi o‘n yillik”** so‘zi o‘rniga **“istalgan”** so‘zini kiritish maqsadga muvofiq.

3. Respublikamizda pensiya tizimi asosan solidar hisoblanganligi va davlat tomonidan kafolatlanganligini, fuqaro kelajakda ijtimoiy ta‘minotga ega bo‘lishi uchun yoshligidan boshlab mehnat faoliyatidagi daromadlardan Pensiya jamg‘armasiga tegishli badallar o‘tkazib kelganligini hisobga olib, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 150-moddasida umumiy da‘vo muddati **uch yil** qilib belgilanganligini hisobga olib, “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonunning 59-moddasidagi birinchi xatboshisidagi **“o‘n ikki oydan oshmagan”** so‘zini **“uch yildan oshmagan”** so‘zlari bilan almashtirish taklif etiladi.

4. Pensiya jamg‘armasiga murojaat qiluvchi fuqarolar, aksariyati sog‘ligini yo‘qotib nogiron bo‘lgan shaxslar, boquvchisidan ajralgan shaxslar yoki pensiya yoshiga yetgan yoshi ulug‘ insonlar hisoblandi. Ushbu toifadagi fuqarolarga bugungi kunda pensiya tayinlash bo‘yicha sezilarli darajada imkoniyatlar yaratilgan bo‘lsada, lekin yoshi yoki sog‘lig‘ining holatiga qarab hujjatlarni kechiktirib topshirish hollari hamon uchramoqda. Shunday kechikib topshirish holatlarini kamaytirish, ijtimoiy huquqlarini himoya qilish va fuqarolarning ijtimoiy muhofazaga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish maqsadida, qonunning 47-modda talablarini qayta ko‘rib chiqib, pensiya tayinlash uchun murojaat qilish muddatlarini uzaytirish maqsadga muvofiqdir. Bunda 47-moddaning ikkinchi va uchinchi xatboshlaridagi **“oltmish”** so‘zlari o‘rniga **“uch oy”** so‘zlarini kiritish taklif etiladi.

5. Qonunning 16-moddasiga asosan I va II guruh nogironlariga pensiya tayinlanadi, III guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga pensiya yoki nafaqa to‘lash nazarda tutilmagan (ChAES qatnashchilaridan tashqari). Shundan kelib chiqib, qonunning 16-moddasiga o‘zgartirish kiritish, ushbu toifa fuqarolarga **pensiya** tayinlash yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga o‘zgartirish kiritish ya‘ni **nafaqa** tayinlash tartibi joriy qilinishi lozimligi asoslantirildi.

6. Pensiya tayinlovchi organlarning kundalik ish yuklamasini muvofiqlashtirish, har bir tayinlanishi lozim bo‘lgan pensiya turlarini har tomonlama o‘rganish va sifatli tayinlashga keng imkoniyatlar yaratish uchun qonunning “pensiya tayinlash to‘g‘risidagi hujjatlarni qarab chiqish muddatlari” deb nomlangan 45-moddasining birinchi xatboshisidagi **“10 kun”** so‘zini, **“bir oy”** so‘zi bilan almashtirish taklif etiladi.

7. Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylarida (pansionatlarida) yashovchi yolg‘iz pensionerlarning ma‘naviy va moddiy ahvolini

mustahkamlash uchun qonunning 60-moddasidagi **“20 foiz”** so‘zi o‘rniga **“50 foiz”** so‘zi bilan almashtirish taklif etiladi.

8. Ota yoki onasining biridan ajralgan chala yetim yoki ota-onasining ikkalasidan ham ajralgan chin yetim bolalarni ijtimoiy huquqlarini yanada mustahkash maqsadida tibbiyot oliygohiga o‘qishga kirgan bola 24-25 yoshida oliy ma‘lumotli bo‘lib institutni tugatishini hisobga olgan holda, qonunning 19-moddasi **“g”** bandi oxiriga **“agar tibbiyot oliy o‘quv yurtlarini tugatsa 25 yoshgacha”** jumlasini qo‘shish taklif etiladi.

9. Qonunning 1-moddasida – Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minotiga taalluqli huquqlari belgilangan va ushbu moddaning 4 - xat boshida ish stajiga ega bo‘lmagan fuqarolar va ularning oilalari ushbu Qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar deb belgilangan. Ushbu moddani huquqiy jihatdan tahlil qilganda ish stajiga ega bo‘lmagan fuqaro ham va uning oilasi ham pensiya olish huquqiga ega emasdek ma‘no anglashiladi. Shuning uchun Qonunning 1-moddasi: 4-xatboshi **“ularning oilalari”** degan so‘z chiqarib tashlash taklif etiladi.

10. O‘zbekistonda milliy pensiya ta‘minoti qonunchiligini takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida Xalqaro Mehnat tashkilotining **“Ijtimoiy ta‘minotning minimal me‘yorlari to‘g‘risida”**gi 102-sonli Konvensiyasini va **“Joylarda ijtimoiy ta‘minotning teng huquqliligi to‘g‘risida”**gi 118-sonli Konvensiyalarini ratifikatsiya qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

11. O‘zbekiston SSRning 1990-yil 28-aprelda qabul qilingan **“Harbiy xizmatchilarning pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”**gi qonuni amalda bo‘lib, ushbu Qonunning ko‘plab normalari eskirgan va hozirgi kundagi zamonaviy talab va shartlarga javob bermaganligi bois uni yangi tahrirda qabul qilish maksadga muvofikdir.

12. Ijtimoiy sug‘urtalar, jumladan majburiy bo‘lmagan ijtimoiy tizimlar ro‘yxatini shakllantirish va ularning huquqlari hamda majburiyatlari, davlat bilan o‘zaro aloqasi va munosabatlarini huquqiy tartibga solish maqsadida **“Nodavlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”**gi Qonunni qabul qilish taklif etiladi.

13. Zamon talablaridan kelib chiqib, nodavlat pensiya jamg‘armalarini shakllantirish, huquqiy asoslarini mustahkamlash va faoliyat ko‘rsatish tartiblarini, ularning davlat va jamiyat oldidagi javobgarligi, ushbu jamg‘armalar ishtirokchilari bilan munosabatlar mezonlarini aniqlashi lozim bo‘lgan **“Nodavlat pensiya jamg‘armalari to‘g‘risida”**gi Qonunni qabul qilish taklif etiladi.

14. Aholining ijtimoiy ta‘minoti to‘g‘risidagi, aholiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam to‘g‘risidagi, ijtimoiy muhofaza to‘g‘risidagi va ijtimoiy ko‘maklar bo‘yicha tarqalib ketgan normativ hujjatlar yaxlitligini ta‘minlash maqsadida **“Aholini ijtimoiy himoyasini ta‘minlash to‘g‘risida kodeks”** ishlab chiqish taklif qilinadi.

15. Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risidagi qonunning 7-moddasi beshinchi xatboshidagi **“Xalq banki”** so‘zi o‘rniga **“tijorat banklari”** so‘zini kiritish taklif etiladi. Xuddi shunday 10, 12, 13, 15 va boshqa moddalardagi Xalq banki so‘zlarini ham o‘zgartirish asoslantirilgan.

16. Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risidagi qonunning **“Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi”** deb nomlangan

16-moddasining birinchi xatboshisidan so‘ng “istisno tarzda betobligi, moddiy ta’minotga muxtojligi yoki boshqa zarur hollar yuzaga kelgan taqdirda olish huquqiga ega” jumlasini qo‘shish taklif etiladi.

III. Amaliy taklif va xulosalar:

1. Pensiyalarni tayinlash, qayta hisoblash masalalarida juda ko‘p murojaatlar bo‘ladi. Shuningdek, pensiya tayinlash jarayonida ham juda ko‘plab qiyin va muammoli masalalarga duch kelinadi. Ushbu masalalarni o‘z vaqtida va tezkor hal etish uchun pensiya sohasida ham “mediatsiya” xizmatini tashkil etish ya’ni sudgacha masalani hal qilish bo‘yicha “Maslahat kengashi” tashkil etish taklif etiladi.

2. Mamlakatimizda mahalla tizimi yanada takomillashib, faollashib borayotganligi va buni 2022-yilda “Inson qadrini ulug‘lash va mahalla yili” deb e’lon qilinganligidan ham bilishimiz mumkin. Fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida mahallalar kesimida pensiya jamg‘armasi xodimlaridan, pensiya agentlarini faoliyatini yo‘lga qo‘yish va pensiya bo‘yicha murojaatlar mahallani o‘zida hal qilish taklif etiladi.

3. Davlat pensiya tizimi yoki Xalq bankidagi majburiy-jamg‘ariladigan va qo‘shimcha ixtiyoriy-jamg‘ariladigan tizimlarni samarali faoliyatini ta’minlash uchun, aholi mablag‘larini jalb etuvchi, ularni qadrsizlanishlardan himoyalovchi va ko‘paytiruvchi, pensiya yoshiga yetganda pensiya to‘lashni ta’minlovchi raqobatbardosh moliya institutlari tizimini shakllantirish zarur. Xalq bankidan tashqari boshqa banklarda ham pensiya fondlarini tashkil etish, shuningdek nodavlat pensiya fondlarni tashkil etish taklif etiladi.

4. Ijtimoiy xizmat turlarining xizmat ko‘rsatuvchi subyektlari har xil bo‘lganligi sababli, ijtimoiy xizmat turlaridan bir yoki bir nechtasini olish huquqiga ega bo‘lgan fuqaro bugungi kunda bir necha vazirlik yoki idoralarga murojaat qilishga majbur hisoblanadi, bundan tashqari respublikamizda ko‘rsatilayotgan ijtimoiy himoya bo‘yicha ma’lumotlar bazalari ham, har qaysi vazirlikda alohida-alohida yuritiladi. Shuning uchun ham ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni yagona davlat organi tomonidan muvofiqlashtirish bugungi kunning muhim va zarur masalalaridan biri hisoblanadi, shundan kelib chiqib ijtimoiy ta’minot borasida yagona davlat organi tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5. Pensiya jamg‘armasi moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va pensiya miqdorlarini oshirish maqsadida moliyalash bilan qoplanmaydigan qo‘shimcha xarajatlar va pensiyalarning tayanch miqdorlari, ustamalar davlat budjetining mablag‘laridan moliyalashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu tajriba birinchidan, Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining maqsadliligini oshirishga, ikkinchidan pensiya jamg‘armasining moliyaviy ahvoli yanada yaxshilanishiga, uchinchidan fuqarolarning ijtimoiy ta’minot huquqiga nisbatan ishonchini yanada oshishiga, to‘rtinchidan pensiya miqdorlarini yanada oshirishga imkoniyat yaratadi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-maydagi 250-son qarori bilan tasdiqlangan 1,2,3 ro‘yxatlardagi kasb, lavozimlar davlat tilida

tasdiqlanmaganligi (faqat rus tilida mavjud) va ularni qo'llash bo'yicha sharhlar berilmaganligini hisobga olib, ushbu masalalar bo'yicha tegishli normativ huquqiy hujjatlar loyahasini tayyorlash taklif etiladi. Shu bilan birga Imtiyozli pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ro'yxatlarda 1500 mingdan ortiq kasb, lavozim va ko'rsatkichlar mavjud, bu kasblarning ayrimlari hattoki respublikamizda mavjud emas, ayrimlari zamonaviy texnologiyalar joriy qilinganligi sababli mehnat sharoitini zararsizlanganligini hisobga olib ro'yxatlarni qayta ko'rib chiqish taklif etiladi.

7. Respublikamizda hamma uchun umumiy bo'lgan ist'emol xarajatlar miqdori belgilandi, lekin nogiron shaxslarning yashash tarzida o'ziga xos xarajatlar mavjud (dori-darmon, davolanish, o'zgaralar parvarishiga muxtojlik, ijtimoiy moslamalar) shuni hisobga olgan holda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun alohida iste'mol xarajatlari miqdorini belgilash taklif etildi.

8. Pensiya ta'minoti tizimida differentsiatsiya qoidalarini tatbiq etish hamda pensiya to'g'risidagi qonun hujjatlarida ushbu qoidalarni mustahkamlash lozim. Xususan, o'qituvchilar, shifokorlar, madaniyat va fan-ta'lim xodimlari va iqtisodiy-ijtimoiy sohada alohida xizmat ko'rsatgan shaxslar uchun **shaxsiy pensiyalar** va davlat xizmatchilariga pensiya tizimlari joriy qilinishi maqsadga muvofiq.

9. Pensiya ta'minoti sohasiga "uchinchi shaxslar tomonidan ijtimoiy soliq to'lash" ilmiy tushunchasini kiritish, u bilan bog'liq uchinchi shaxslar tomonidan ijtimoiy soliq to'lash mexanizmini ishlab chiqish lozim. O'zini-o'zi band qilgan fuqarolar yoki ishlamayotgan fuqarolarga ham nafaqat turmush o'rtog'i, balki qarindoshlari yoki boshqa har qanday shaxslar tomonidan ham ijtimoiy soliq to'lash imkoniyati yaratilishi ularning kelajakda ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu ro'yxatga hech qaerda ishlamasdan uy-ro'zg'or, tomorqa ishlari bilan band bo'lgan shaxslarga oila a'zolari yoki yaqinlari tomonidan ixtiyoriy ravishda ijtimoiy soliq to'lash amaliyotini joriy qilish taklif etiladi.

10. Ijtimoiy to'lovlar va sug'urta badallari to'lovchilar safini yanada kengaytirish uchun shart-sharoit yaratish, jumladan norasmiy sektorda band bo'lgan shaxslarni kelajakda ijtimoiy ta'minotini ta'minlash maqsadida qo'shimcha imtiyozlar (tadbirkorlik uchun boshlang'ich to'lovlar, iste'mol kreditlari, dam olish yo'llanmalari kabi imtiyozlar) bergan holda ular mehnatini legallashtirish, taklif etiladi.

11. Mehnat migrantlarining yetarli ijtimoiy ta'minotga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida, davlatlaro pensiya ta'minoti bo'yicha yangi bitimlar tuzish orqali qo'shimcha kompensatsiya olish huquqini mustahkamlash taklif etiladi. Pensiya yoshiga yetganda respublikada yoshga doir pensiya va xorijda o'n yildan ortiq ishlagani uchun ham qo'shimcha pensiya tayinlanishini yo'lga qo'yish yoki xorijda o'n yildan kam vaqt ishlagan bo'lsa o'z davlatida yoshga doir pensiya bilan birga qo'shimcha kompensatsiya olish huquqi berilishi taklif etiladi. Ushbu taklif bilan fuqarolarning boshqa davlatda ishlab to'lagan ijtimoiy badallari kompensatsiya bo'lishi huquqiga ega bo'ladilar va ular munosib pensiya bilan ta'minlanadilar.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА БАЗЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.32/30.12.2020.Yu/74.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**УНИВЕРСИТЕТ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

ЗИЯДУЛЛАЕВ МАХМУДЖОН ДЖУРАКУЛОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВЫХ ОСНОВ ПЕНСИОННОЙ
СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

12.00.05 – Трудовое право. Право социального обеспечения

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора юридических наук (Doctor of Science)

Тема диссертации доктора наук (Doctor of Science) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан за №B2021.1.DSc/Yu157.

Диссертация выполнена в Университете общественной безопасности Республики Узбекистан. Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском резюме)) на сайте (www.mgjxu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Усманова Муборак Акмалджановна
доктор юридических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Самарходжаев Ботир Билолович
доктор юридических наук, профессор

Исмаилов Шухратжон Абдусаминович
доктор юридических наук

Газиев Шохрух Муродалиевич
доктор юридических наук, доцент

Ведущая организация:

Центр повышения квалификации юристов при Министерстве юстиции Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится «__» сентября 2023 года в ___ часов на заседании Разового Научного совета при Научном совете по присуждению ученых степеней DSc.32/30.12.2020.Yu/74.01 при Университете общественной безопасности Республики Узбекистан (Адрес: 100211, Ташкентская обл., Зангиатинский район, курган Чорсу, Тел.: (99871) 230-32-71; факс: (99871) 230-32-50; e-mail: mgjxu@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Университета общественной безопасности Республики Узбекистан (зарегистрировано за № ____). (Адрес: 100211, Ташкентская обл., Зангиатинский р-н, курган Чорсу, Тел.: (99871) 230-32-71; факс: (99871) 230-32-50.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2023 года.
(реестр протокола рассылки № __ от «__» _____ 2023 года).

М.Х.Рустамбаев

Председатель Разового Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

М.И.Махсадов

Научный секретарь Разового Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по юридическим наукам, доцент

М.Б.Усманов

Председатель Научного семинара при Разовом Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (DSc) диссертации)

Актуальность и необходимость темы диссертации. В результате демографических изменений в мире увеличение продолжительности жизни населения соответственно ставит на повестку дня другие социальные вопросы, в том числе задачу дальнейшего совершенствования пенсионной системы. Население земли с каждым годом стареет, и по данным ООН, на сегодняшний день число пожилых людей (60 лет и старше) составляет более 1 млрд. или 13% от общей численности населения¹. Согласно анализу Международной организации труда, лишь 68% этой категории населения обеспечены пенсией². Это свидетельствует о том, что в странах мира действуют разные модули, системы и концепции пенсионного обеспечения. Так, в некоторых экономически развитых странах (например, в США, Германии, Франции, КНР, РФ, Скандинавских странах, Сингапуре) действуют прогрессивные формы государственных и негосударственных пенсионных систем, актуальное значение представляет внедрение в национальное законодательство и отраслевую практику прогрессивный опыт и механизмы по повышенному размеру среднего размера пенсий, полного охвата всех категорий населения социальным страхованием, внедрения в отрасль информационно-коммуникационных технологий.

На международной арене на сегодняшний день осуществляются научные исследования по разрешению проблем пенсионной системы, являющейся частью социальной защиты и совершенствованию правовых основ пенсионного обеспечения. В этой связи, особенно приоритетной задачей считается проведение научного анализа вопросов создания оптимальной пенсионной системы, совершенствованию гарантий обеспечения граждан достойной пенсией, пересмотру пенсионного законодательства в соответствии с международными стандартами, созданию новых правовых механизмов и модулей пенсионного обеспечения, достижению верховенства применения принципов социальной справедливости и законности при пенсионном обеспечении, иными словами, совершенствованию правовых основ пенсионного обеспечения.

В последние годы в нашей стране реализуются программные мероприятия по реформированию пенсионной системы. В частности, в “Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы” определены конкретные задачи по дальнейшему развитию и совершенствованию активизации социальной защиты населения³, среди которых отмечена необходимость дальнейшего совершенствования национальной пенсионной системы. Это в свою очередь, показывает необходимость научного исследования обеспечения пенсионного обеспечения субъектов, работающих

¹ Дунё аҳолиси кексаймоқдами? // <https://kun.uz>

² <https://www.kommersant.ru>

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, www.lex.uz.

в настоящее время в неформальном секторе посредством внедрения системы социального страхования, разработки необходимых механизмов пенсионного обеспечения граждан в будущем, осуществляющих деятельность в сфере внешней трудовой миграции, создания в Узбекистане альтернативной государственному пенсионному обеспечению системы пенсионного обеспечения, организации конкурентоспособных финансовых институтов и негосударственных пенсионных структур, повышения индекса устойчивости действующего пенсионного фонда, сокращение получения трансфертов из государственного бюджета (15 трлн.сум) на покрытие пенсионных выплат, иными словами, совершенствование действующей пенсионной системы и отраслевого законодательства.

Данное диссертационное исследование в определенной мере послужит реализации задач, определенных в Трудовом кодексе, Законе Республики Узбекистан «О государственном пенсионном обеспечении граждан», Законе «О накопительном пенсионном обеспечении граждан», Указе Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Указе Президента Республики Узбекистан №УП-5597 от 12 декабря 2018 года «О дополнительных мерах по усилению социальной поддержки пенсионеров и повышению эффективности системы пенсионного обеспечения граждан», постановлении от 13 марта 2017 года «О дальнейшем совершенствовании механизма выплаты пенсий и пособий», а также постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 8 сентября 2011 года № 252 «Об утверждении нормативно-правовых актов, направленных на дальнейшее совершенствование порядка назначения и выплаты государственных пенсий» и других отраслевых нормативно-правовых актах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления республиканского развития науки и техники I. «Формирование системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации⁴. Научные исследования по совершенствованию нормативно-правовой базы социального пенсионного обеспечения, проводятся в ведущих мировых научных центрах и высших образовательных учреждениях, в том числе в Yale University, University of California, Davis, University of Connecticut, Hunter College, University of Maryland, University of Oxford, Cambridge University

⁴ Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации: <https://www.yale.edu>, <https://www.universityofcalifornia.edu/>; <https://www.ucdavis.edu/>; <https://uconn.edu/>; <https://hunter.cuny.edu/>; <https://www.umd.edu/>; <https://www.nyu.edu/>; <https://www.ox.ac.uk/>; <https://www.cam.ac.uk/>; <https://www.bc.edu/>; <https://www.harvard.edu/>; <https://www.uchicago.edu/>; <https://home.gsb.columbia.edu/>; <https://www.jhu.edu/>; <https://www.tilburguniversity.edu/>; <https://www.kuleuven.be/kuleuven/>; <https://www.ed.ac.uk/>; <https://www.uzh.ch/de.html> <https://www.uni-frankfurt.de/>; <https://www.msu.ru/>; <https://msal.ru/>; <http://igpran.ru/>; <https://www.tsu.ru/>; <https://gubkin.ru/>; <https://www.rea.ru/ru/abiturientu/Pages/abiturientu.aspx>; <https://sgmu.ru>.

(Великобритания), Boston College, Harvard University, The University of Chicago, Columbia Business School, Johns Hopkins University (США), Tilburg University (Нидерланды), Katholieke Universiteit Leuven (Бельгия), The University of Edinburgh (Шотландия), The University of Zurich (Швейцария), Goethe University Frankfurt (Германия), Московском государственном университете имени Ломоносова, Московском государственном юридическом университете имени Кутафина, Томском государственном университете, Российской экономической академии имени Г.В. Плеханова, Саратовском социально-экономическом институте (Российская Федерация).

